ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. DJabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каяумов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdiquodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO‘JALIKLARINING YER BILAN TA‘MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o‘g‘li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G‘AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG‘ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyeich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma‘mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG‘LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o‘g‘li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o‘g‘li	
NAMANGAN VILOYATI OZIY-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O‘SISH SUR‘ATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSİYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O‘ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO‘RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto‘raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvovna	



O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLAKATNING HUDUDIIY IQTISODIIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELII	1644
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLAKAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	



VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Buranova Jazira Ergash qizi

TDIU Akademik faoliyatni tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Maqolada virtual laboratoriyalarning iqtisodiyot yo'nalishida professional kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda virtual laboratoriyalar asosida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, iqtisodiy hisob-kitoblar, moliyaviy tahlil hamda boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Iqtisodiy ta'limda raqamli va interaktiv metodlardan foydalanishning ustunliklari, virtual tajribalar orqali talabalarda amaliy bilim va kompetensiyalarning shakllanishi ilmiy asosda asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: virtual laboratoriya, iqtisodiyot ta'limi, professional kompetensiya, raqamli ta'lim, iqtisodiy modellashtirish.

Abstract. This article examines the role of virtual laboratories in developing professional competencies in the field of economics. The research explores virtual tools for economic process modeling, financial calculations, management simulations, and analytical skill enhancement. The advantages of digital and interactive learning methods, as well as their impact on students' practical skills and decision-making abilities, are thoroughly analyzed.

Key words: virtual laboratory, economic education, professional competence, digital learning, economic modeling.

Аннотация. В статье исследуется роль виртуальных лабораторий в формировании профессиональных компетенций у студентов экономических направлений. Анализируются возможности моделирования экономических процессов, выполнения расчетов, финансового анализа и управления на основе виртуальных платформ. Показаны преимущества цифровых и интерактивных методов обучения, а также их влияние на развитие аналитического мышления и практических навыков у обучающихся.

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, экономическое образование, профессиональная компетенция, цифровое обучение, экономическое моделирование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya va iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi sharoitida tubdan yangilanib bormoqda. Xususan, iqtisodiyot ta'limi real bozor mexanizmlarini chuqur anglashni talab qiladigan yo'nalish sifatida raqamli vositalar, simulyatsiyalar va interaktiv texnologiyalarga tobora ko'proq tayanmoqda. An'anaviy dars jarayonida iqtisodiy jarayonlarni to'liq modellashtirish, murakkab holatlarni xavf-xatarsiz sinab ko'rish yoki bozor jarayonlarining dinamikasini kuzatish imkoniyati cheklangan. Shu sababli virtual laboratoriyalar iqtisodiyot ta'limi uchun yangi metodik yechim sifatida shakllanmokda.

Virtual laboratoriyalar simulyatsiya qilingan iqtisodiy muhitda talabalar uchun amaliy tajribani xavfsiz, tejamkor va takrorlanuvchan tarzda tashkil etishga imkon beradi. Ular iqtisodiy modellar, statistik tahlillar, bozor jarayonlari va boshqaruv qarorlarini virtual sharoitda sinovdan o'tkazish imkoniyatini yaratib, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt, virtual reallik (VR/AR), bulutli texnologiyalar kabi raqamli yechimlarning rivojlanishi virtual laboratoriyalar imkoniyatlarini yanada kengaytirdi hamda ularni iqtisodiy ta'limning ajralmas qismiga aylantirdi.

Mazkur maqolada virtual laboratoriyalarning iqtisodiyot ta'limi tizimidagi o'rni, ularning texnik va metodik asoslari, qo'llash mexanizmlari, afzalliklari va cheklovlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro va milliy tajribalar asosida iqtisodiyot fanlarida virtual laboratoriyalarni samarali integratsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiyot yo'nalishida amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan yangi metodik yondashuvlarni shakllantirdi. Virtual laboratoriyalar bu jarayonning



asosiy vositalaridan biri sifatida talabalarning iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, analitik tahlil qilish va real bozor muhitini simulyatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mishra va Koehler tomonidan ilgari surilgan TPACK modeli raqamli ta'lim jarayonida texnologik, pedagogik va mazmuniy kompetensiyalar uyg'unligini ta'minlashni zarurligini ta'kidlaydi; bu yondashuv virtual laboratoriyalarni ta'limga integratsiya qilishning ilmiy-metodik asosini belgilaydi. Mayerning multimedia o'qitish nazariyasi esa virtual muhitda o'quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish talabalarning idrok va o'zlashtirish darajasini sezilarli oshirishini ko'rsatadi.

Ekonometrik va iqtisodiy modellashtirish bo'yicha o'quv texnologiyalarini o'rganishda AnyLogic, MATLAB, EViews kabi muhitlardan foydalanishning didaktik samaradorligini Sokolova, Bessmertnaya va Bart tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tasdiqlaydi. Ularning fikricha, iqtisodiy tajribalarni simulyatsiya qilish bilim kuchayishi, statistik tafakkurni rivojlantirish va qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xuddi shuningdek, Labster va MarketSim kabi platformalar ta'lim oluvchilar uchun real bozor holatlari, narx mexanizmi, investitsion portfellar va risklarni boshqarish jarayonlarini xavfsiz va takrorlanuvchan sharoitda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi; bu yo'nalishda Jensen va Lund tomonidan olib borilgan tadqiqotlar virtual tajribalar an'anaviy amaliy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ta'minlashini qayd etadi.

Raqamli simulyatsiyalarning iqtisodiy ta'limdagi ahamiyati bo'yicha Anderson va Krathwohl tomonidan ishlab chiqilgan Bloom taksonomiyasining revisiyasi yuqori darajadagi kompetensiyalar — tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlariga erishishda interaktiv vositalarning ustunligini ko'rsatadi. OECD tomonidan e'lon qilingan "Future of Education and Skills" hisobotlarida esa virtual laboratoriyalar orqali analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va raqamli savodxonlik bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy iqtisodchilar tayyorlashning asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan.

Xalqaro tajribada virtual iqtisodiy laboratoriyalarni qo'llash bo'yicha MIT, London School of Economics va Singapore Management University natijalari talabalarning analitik kompetensiyalarida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Xususan, MIT tadqiqotlarida MarketSim simulyatori orqali bozor muvozanati, narx shakllanishi va talab-taklif dinamikasini o'rgangan talabalar nazariyani amaliy jarayonlar bilan bog'lashda yuqori natijalar ko'rsatgan. Bozor modellarini interaktiv o'qitish metodlari bo'yicha McConnell va Brue tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda virtual modellashtirish muhitlari iqtisodiy tushunchalarni soddalashtirish va talabning mustaqil fikrlash jarayonini faollashtirishga imkon berishi aniqlangan.

Ta'lim sifatini oshirishda virtual laboratoriyalarning pedagogik samaradorligi Jonassen, Reeves va Clark tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular konstruktivizm yondashuvi asosida simulyatsiya muhitlari talaba uchun faol tajriba maydonini yaratishini ko'rsatadi. Bu qarashlar iqtisodiyot fanlari uchun ayniqsa muhim, chunki iqtisodiy ko'rsatkichlar, statistik tahlillar va dinamik jarayonlarni to'liq amaliy kontekstda o'rganishni talab qiladi. Raqamli iqtisodiyot ta'limidagi kompetensiyalar bo'yicha Brynjolfsson va McAfee tomonidan olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlar esa virtual tajribalar analitik fikrlashni tezlashtirishini va bozor mexanizmlariga moslashuvchan yondashuvni shakllantirishini qayd etadi.

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili virtual laboratoriyalar iqtisodiyot yo'nalishida professional kompetensiyalarni shakllantirish, iqtisodiy modellarni amaliy sinovdan o'tkazish, talabalarning analitik salohiyatini oshirish va real iqtisodiy jarayonlarga yaqin muhit yaratishda samarali vosita ekanini ilmiy asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi virtual laboratoriyalarning iqtisodiyot ta'limidagi samaradorligini baholash uchun empirik ma'lumotlar yig'ish, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan raqamli platformalar natijalarini monitoring qilish, talabalarning kompetensiya ko'rsatkichlari bo'yicha so'rovlar va testlardan foydalanishga asoslanadi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil, taqqoslash va regressiya usullari orqali qayta ishlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimi so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot ta'limi — real bozor jarayonlarini amaliy o'rganishni talab qiladigan yo'nalish sifatida virtual texnologiyalarga katta ehtiyoj sezadi. Virtual laboratoriyalar ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda vujudga kelgan bo'lib, talabalarga simulyatsiya qilingan iqtisodiy muhitda tajriba o'tkazish imkonini beradi.

Virtual laboratoriya — bu kompyuter muhitida yaratilgan, real jarayonlarning modellashtirilgan shakli bo'lib, o'quvchi yoki talaba u orqali amaliy tajribani texnik xavf-xatarlarsiz, iqtisodiy yo'qotishsiz hamda cheklanmagan miqdorda bajarishi mumkin. Dastlab virtual laboratoriyalar fizika, kimyo, tibbiyot kabi fanlarda qo'llanilgan bo'lsa, so'nggi o'n yillikda ular iqtisodiyot, menejment, marketing, moliya va buxgalteriya yo'nalishlarida ham keng tarqala boshladi.



Virtual laboratoriyalarning rivojlanish bosqichlari

1. I bosqich (1990–2000-yillar) — kompyuter simulyatsiyalariga asoslangan dastlabki laboratoriyalar yaratilishi.
2. II bosqich (2000–2010-yillar) — internet texnologiyalari asosida masofaviy virtual mashg'ulotlar.
3. III bosqich (2010–2020-yillar) — 3D-modellash, interaktiv simulyatsiyalar, iqtisodiy o'yinlar.
4. IV bosqich (2020-yildan hozirgacha) — bulutli platformalar, sun'iy intellekt asosidagi virtual laboratoriyalar, VR/AR texnologiyalari [5-6].

Bugungi kunda virtual laboratoriyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar nafaqat texnologik mahsulot, balki ta'limning yangi metodik modeli sifatida qaraladi. Ular quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Virtual laboratoriya tuzilishi: interaktiv muhit — iqtisodiy jarayonni modelashtiruvchi asosiy platforma; ma'lumotlar bazasi — bozor ma'lumotlari, statistik ko'rsatkichlar, modellar; hisoblash moduli — talab–taklif modeli, regressiya tahlili, optimallashtirish algoritmlari; vizualizatsiya moduli — grafiklar, diagrammalar, jadval ko'rinishidagi natijalar; baholash tizimi — avtomatik baholash, testlar, virtual loyiha topshiriqlari.

Pedagogik ahamiyati. Virtual laboratoriyalarning pedagogik ustunliklari quyidagilardan iborat: amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning xavfsiz va tejamkor yo'li; real bozor jarayonlarini modelashtirish imkoniyati; analitik fikrlash va iqtisodiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quv jarayonining interaktivligi va talaba faolligini oshirish; talabning mustaqil ishlash imkoniyatini kengaytirish; cheksiz miqdorda tajriba o'tkazish imkoniyati.

Virtual laboratoriyalar iqtisodiyot ta'limida nimani beradi: bozor muvozanati modellari bilan ishlash; narx mexanizmini amalda tahlil qilish; kredit, depozit, investitsion portfel tuzish; inflyasiya, ishsizlik va iqtisodiy o'sish modellari qurish; korxona rentabelligini hisoblash va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish. Demak, virtual laboratoriyalar iqtisodiy fanlardagi abstrakt nazariy tushunchalarni konkret, amaliy faoliyatga aylantirib beradi. Virtual laboratoriyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun ma'lum texnik, dasturiy va metodik shartlar talab etiladi.

Texnik talablar: yuqori unumli kompyuterlar; server yoki bulutli xosting; tezkor internet; grafik protsessorli quрилmalar (3D-modellar uchun).

Dasturiy ta'minot. Iqtisodiyot ta'limida qo'llaniladigan mashhur virtual laboratoriya platformalari: AnyLogic — iqtisodiy modellash, logistika, tizim tahlili; Labster Virtual Labs — amaliy mashqlarni simulyatsiya qilish; MarketSim — bozor iqtisodiyoti modellari; PhET Simulations — makro va mikroiqtisodiy jarayonlar; EViews, Stata, SPSS — statistik tahlil laboratoriyalari; Simulink (Matlab) — iqtisodiy jarayonlarni matematik modelashtirish.

Metodik talablar: fan dasturiga moslab laboratoriya topshiriqlarini ishlab chiqish; o'qituvchilarni maxsus tayyorlash; talabalarga yo'riqnomalar va videodarslar yaratish; o'quv natijalarini baholash mezonlarini belgilash [1-7].

Shunday qilib, virtual laboratoriyalarni joriy etish o'quv jarayonini modernizatsiya qilishga, talabalarning kompetensiyalarini xolis baholashga xizmat qiladi. Iqtisodiyot fanlari o'z tabiatiga ko'ra murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash esa doimo muammo bo'lib kelgan. Virtual laboratoriyalar ushbu muammoni samarali hal qiladi.

Virtual laboratoriyalarning asosiy afzalliklari:

1. Real bozor jarayonlarini takrorlash imkoniyati (valyuta kursi o'zgarishi, talab–taklif o'zgarishi, narx shakllanishi).
2. Risklarsiz amaliyot (bank amaliyotlari, investitsiya portfeli, birja savdosi talaba uchun xavfsiz).
3. Vaqt va resurslarni tejash (murakkab formulalar avtomatik hisoblanadi, ma'lumotlar bazasi tayyor).
4. Mustaqil ta'limni qo'llash (talaba topshiriqni istalgan vaqtda, istalgan joyda bajaradi).
5. Statistik tahlilni rivojlantirish (regressiya tahlili, prognozlash, optimallashtirish) (1-jadval) [5].

1-jadval. Iqtisodiyot fanlarida qo'llanishi

Fan nomi	Qo'llaniladigan virtual laboratoriya turi
Mikroiqtisodiyot	Talab-taklif simulyatsiyasi, narx mexanizmi
Makroiqtisodiyot	Inflyasiya modeli, iqtisodiy o'sish, ishsizlik
Moliyaviy tahlil	Kreditlash, investitsion portfel
Marketing	Bozor segmentatsiyasi, talab prognozi
Menejment	Korxona boshqaruv jarayoni, logistika

Bunday laboratoriyalar talabning nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikmalarini ham shakllantiradi, bu esa zamonaviy iqtisodchi uchun eng muhim talab hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar iqtisodchi mutaxassis uchun muhim bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Asosiy kompetensiyalar quyidagilardan iborat:



1. Analitik kompetensiya: statistik va iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish, model yaratish va natijalarni baholash, qaror qabul qilishni asoslash.
 2. Amaliy kompetensiya: bozor jarayonlarini modellashtirish, investitsion risklarni baholash, korxona samaradorligini hisoblash.
 3. AKT kompetensiyasi: dasturiy platformalarda ishlash, simulyatsiya dasturlaridan foydalanish, ma'lumotlar bazasini tahlil qilish.
 4. Kommunikativ kompetensiya: virtual loyiha taqdimotlari, guruhli simulyatsiya mashg'ulotlarida ishtirok etish.
 5. Ijodiy kompetensiya: iqtisodiy jarayonlarga yangicha yondashuv, yangi modellash usullarini qo'llash.
- Virtual laboratoriyalar aynan shu kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar qator afzalliklarga ega bo'lishiga qaramay, ular bilan bog'liq ayrim cheklovlar ham mavjud (2-jadval).

2-jadval. Cheklovlar va bartaraf etish yo'llari

Cheklovlar:	Bartaraf etish yo'llari
texnik ta'minotning yetishmasligi	o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish
dasturiy ta'minotning murakkabligi	o'qitish jarayonini soddalashtirilgan virtual platformalar asosida boshlash
o'qituvchi va talabalarning AKT bo'yicha yetarli tayyor emasligi	texnik bazani modernizatsiya qilish
internet tezligi bilan bog'liq muammolar	bulutli texnologiyalar yordamida ishlash
	videoqo'llanmalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqish

Shunday qilib, bular virtual laboratoriyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini beradi. So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishida interaktiv va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonda virtual laboratoriyalar asosida o'qitish tajribasi iqtisodchilar tayyorlashda yangi pedagogik modelga aylandi.


Jahon tajribasidan misollar:

1. MIT (AQSh) — MarketSim, MacroLab kabi platformalarda talabalar iqtisodiy muvozanatni amalda sinovdan o'tkazadi.
2. London School of Economics — iqtisodiy jarayonlarni bashorat qilish uchun virtual birja va real vaqt rejimidagi simulyatsiyalar qo'llaniladi.
3. Singapore Management University — raqamli biznes jarayonlarini 3D-formatda o'rgatuvchi virtual platformalar yaratilgan [1-3].

O'zbekiston tajribasi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida quyidagi virtual platformalar keng qo'llanila boshlagan: "Iqtisodiy modellashtirish" laboratoriyalari (AnyLogic, Matlab), statistik tahlil virtual laboratoriyalari (SPSS, Stata), virtual moliya laboratoriyalari — bank amaliyotlari va investitsion portfel tuzish simulyatsiyalari, "Raqamli iqtisodiyot" VR-laboratoriyalari — logistika jarayonlarini modellashtirish. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, virtual laboratoriyalar talabalarning fanlarni o'zlashtirish darajasini 20–30% ga oshiradi, analitik fikrlashni rivojlantiradi va amaliy kompetensiyalarni mustahkamlaydi.

Virtual laboratoriyalar asosida o'qitishda talabalarning o'zlashtirish darajasini xolis baholash muhimdir. Shu sababli maxsus baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Asosiy baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Analitik kompetensiya mezonlari: bozor muvozanatini aniqlay olishi, talabaniq mustaqil iqtisodiy model qurishi, regressiya tahlili va prognozlashni bajarishi.
2. Amaliy kompetensiya mezonlari: investitsion risklarni aniqlay olishi, moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash, korxona samaradorligini model asosida baholash.
3. AKT bo'yicha kompetensiya: virtual simulyatsiyalarda mustaqil ishlash, statistik dasturiy paketlardan foydalanish, virtual platformadagi laboratoriya topshiriqlarini to'liq bajarish.
4. Kommunikativ kompetensiya: virtual loyiha taqdimoti, guruhli simulyatsiyalarda ishtirok etish, iqtisodiy tahlil natijalarini og'zaki bayon qilish.
5. Ijodiy kompetensiya: yangi iqtisodiy model yaratish, takliflar ishlab chiqish, muqobil iqtisodiy yechimlar taklif eta olish [1-7] (1-rasm).



1-rasm. Virtual laboratoriyalar orqali baholash shakllari

Natijalar o'quv jarayonining sifatini oshirish va bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Quyida iqtisodiy yo'nalishda o'qitishni modernizatsiya qilish bo'yicha samarali model taklif etiladi.

1-bosqich. Diagnostika: talabalar bilim darajasini aniqlash, AKT bo'yicha tayyorgarlikni baholash, o'qituvchilar malakasini tahlil qilish, texnik bazani diagnostika qilish.

2-bosqich. O'quv dasturiga integratsiya: har bir fan uchun virtual laboratoriya topshiriqlarini ishlab chiqish, o'quv reja va dasturga moslashtirish, bosqichma-bosqich integratsiya.

3-bosqich. O'qitish jarayonini amalga oshirish: ma'ruza — virtual tajriba bilan boyitiladi; amaliy mashg'ulot — to'liq virtual simulyatsiya asosida; mustaqil ta'lim — onlayn laboratoriya orqali; jamoaviy ishlar — virtual iqtisodiy loyihalar.

4-bosqich. Baholash: har bir virtual topshiriq bo'yicha avtomatik baholash, yakuniy loyiha, kompetensiya asosida baholash varaqalari.

5-bosqich. Tahlil va takomillashtirish: o'quv jarayonining samaradorligini monitoring qilish, statistik natijalar asosida takliflar ishlab chiqish, platformalarni yangilab borish.

Mazkur model iqtisodiyot fanlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. Virtual laboratoriyalarni iqtisodiyot ta'limida qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari

No	Afzalliklari	Kamchiliklari	Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar
1.	Real iqtisodiy jarayonlarni xavfsiz modellashtirish	Texnik vositalarning yetishmasligi	o'qituvchilar uchun malaka oshirish
2.	O'quv jarayonining interaktivligi	Kuchli internet talab etilishi	soddalashtirilgan virtual simulyatorlardan foydalanish
3.	Mustaqil ta'lim imkoniyatining kengayishi	Dasturiy ta'minotning murakkabligi	videodarslar yaratish
4.	Analitik ko'nikmalarning shakllanishi	O'qituvchilarning tayyorgarligi yetarli bo'lmasligi	server infratuzilmasini yaxshilash
5.	Moliyaviy yo'qotishlarsiz tajriba o'tkazish	Ba'zi talabalarda raqamli savodxonlikning pastligi	o'quvchilar uchun boshlang'ich treninglar o'tkazish
6.	Vaqt va resurslar tejallishi		
7.	Talabada amaliy iqtisodchi sifatida fikrlashni shakllantiradi		

Shunday qilib, virtual laboratoriyalar zamonaviy ta'lim jarayonida, xususan iqtisodiyot yo'nalishida o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikma va professional kompetentsiyalarini rivojlantirishda eng samarali innovatsion texnologiyalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida virtual laboratoriyalar iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish, korxona faoliyatini raqamli muhitda boshqarish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash kabi jarayonlarda yuqori natija berishi aniqlandi. Shu bilan birga, virtual muhitda iqtisodiy tajribalar o'tkazish talabalarga real iqtisodiy vaziyatlarga yaqin sharoit yaratadi, ularni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul



qilishga undaydi. Shuningdek, bunday platformalar an'anaviy laboratoriya ishlari bilan solishtirilganda xavfsiz, tejamkor va vaqt jihatdan ancha qulay imkoniyatlar yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, virtual laboratoriyalardan foydalanish:

- iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar kompetentsiyalarini tez va samarali shakllantirishga;
- o'quv jarayonining interaktivligini oshirishga;
- iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish orqali chuqur tahliliy fikrlashni rivojlantirishga;
- ta'lim oluvchilarning iqtisodiy vaziyatlarni hal qilishda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini

shakllantirishga;

- pedagogning o'quv jarayonini raqamlashtirish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Maqolada o'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Virtual laboratoriyalar iqtisodiy ta'lim sifatini oshirishning muhim zamonaviy vositasidir.
2. Ular iqtisodiy jarayonlarning real modellari bilan ishlash imkonini yaratadi.
3. Talabalar professional kompetentsiyalarining shakllanishi an'anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada tez va samarali kechadi.
4. Virtual laboratoriyalarni joriy etish iqtisodiy ta'limda innovatsion muhit yaratadi va pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson J. Virtual simulation for economics: applied cases. — Cambridge University Press, 2024.
2. Collins A. Digital learning and simulation tools in economics. — New York: Routledge, 2023.
3. Kozina E. Virtual laboratories in economic education: methods and technologies. — London: Springer, 2022.
4. OECD. Digital Education Outlook. — Paris: OECD Publishing, 2024.
5. World Bank. Digital Skills for the Future Economy. — Washington, 2024.
6. Министерство высшего образования. Raqamli universitet konsepsiyasi. — Toshkent, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>